

**XALQARO BIZNESDA IQTISODIY OMILLARNI BAHOLASH:
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN
IMKONIYATLAR**

Xalqaro Nordik universiteti

“Iqtisodiyot va pedagogika” fakulteti

“Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrası

Xalqaro menejment fanidan

A'zamova Maftuna Jahongir qizi

1-JI-24

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda xalqaro biznesda iqtisodiy omillarni baholashning nazariy asoslari, ularning global iqtisodiy jarayonlarga ta'siri va davlatlar raqobatbardoshligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar — AQSH, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida iqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit, innovatsion rivojlanish, mehnat bozori samaradorligi hamda biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining afzalliklari ochib beriladi. Mazkur tajribalar O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari, xususan iqtisodiy islohotlar, investitsion jozibadorlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro biznesni rivojlantirishga oid ustuvor yo'nalishlar bilan solishtirib tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar, strategik yondashuvlar hamda iqtisodiy omillarni baholashning samarali mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Kichik va o'rta biznes, iqtisodiy o'sish, rivojlangan davlatlar tajribasi, rivojlanayotgan davlatlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalar, inson kapitali, “yashil” iqtisodiyot, ayollar tadbirkorligi, moliyaviy savodxonlik, startaplar rivoji, Germaniya tajribasi, AQSh Silikon vodiysi, O'zbekiston iqtisodiy islohotlari, kredit liniyalari, tadbirkorlikni rag'batlantirish, biznes infratuzilmasi, malaka oshirish markazlari, eksport

Kirish: O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biriga aylantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham mazkur sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, kichik va o‘rta biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqishini qo‘llab-quvvatlash, startap tashabbuslarini rag‘batlantirish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa davlatning ushbu sektorni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.[1]

2019-yildan buyon mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan yarmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, 2022-yil natijalariga ko‘ra, kichik biznesning YIMdagi ulushi 2019-yilga nisbatan 4 foizga qisqargan. Mazkur yillarda qurilish sohasi va bandlikdagi kichik biznes ulushi ham 2–3 foiz atrofida kamaygan. Eng sezilarli o‘zgarish import ko‘rsatkichlarida qayd etilib, qariyb 13 foizlik pasayish kuzatilgan. Biroq ushbu davrda sanoat va eksportda ijobiy dinamikaga erishilib, sanoatda 0,2 foiz, eksportda esa 2,6 foizlik o‘shish qayd etilgan.

Rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri sifatida kichik va o‘rta biznesning rivoji alohida o‘rin tutadi. Ushbu sektor yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va mamlakatning barqaror o‘shishini ta‘minlashda muhim drayver hisoblanadi. Biroq ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda kichik va o‘rta biznesning izchil taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi o‘xshash muammolar mavjud bo‘lib, ular sohaning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishni cheklaydi.[2]

Xususan, ichki va tashqi bozorlarga kirib borishdagi murakkabliklar, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishdagi tizimli qiyinchiliklar, inson kapitalining yetishmasligi va ishchi kuchining past malaka darajasi kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasini cheklovchi asosiy omillardan sanaladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va kichik hamda o‘rta biznes subyektlarini samarali rivojlantirish uchun davlatlar quyidagi ustuvor

yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim:

— **Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish va ayollar boshqaruvidagi bizneslarni qo'llab-quvvatlash.** Rivojlanayotgan davlatlarda ko'pincha kengayish va innovatsiyadan ko'ra omon qolishga intiladi, bu esa ularni YIMga kam qiymat qo'shadigan faoliyatlar bilan cheklab qo'yadi. Shuning uchun tadbirkorlarning malakasini oshirish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish hamda gender tengligini ta'minlash borasidagi doimiy treninglar muhimdir.

— **“Yashil” iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish.** Rivojlanayotgan davlatlarning aksariyati hali ham ekologik zararli sanoat tarmoqlariga tayangan holda faoliyat yuritadi, bu esa uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi. KO'Bning “yashil” texnologiyalarga o'tishini davlat qo'llab-quvvatlashi va manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur.[3]

— **Ayollarning ishtirokini kengaytirish va inson kapitalini rivojlantirish.** Tadbirkorlik salohiyati KO'Bda innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy modernizatsiyani jadallashtirish uchun muhim hisoblanadi. Shu bois malaka oshirish dasturlari, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berish lozim.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham kichik va o'rta biznesning iqtisodiy o'sishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Masalan, 2021-yilda Germaniyada faoliyat yuritayotgan 3,2 million korxonaning 99,3 foizi kichik va o'rta biznes toifasiga kiradi; ularning bandlikdagi ulushi esa 56 foizni tashkil etib, iqtisodiyotning asosiy tayanchi sifatida qaraladi. Shuningdek, AQShdagi “Silikon vodiysi”da dunyoga mashhur bo'lgan startaplar ham avval kichik biznes sifatida shakllangan[4].

O'zbekistonda ham kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning tadbirkorlar bilan uchrashuvidan keyin e'lon qilingan chora-tadbirlar dasturi doirasida KO'B loyihalarini moliyalashtirish uchun 150 million dollarlik kredit liniyasi ochildi; mazkur kreditlar 7 yilgacha qulay shartlarda taqdim etilishi belgilandi.

Shuningdek, Biznesni rivojlantirish banki huzurida barcha hududlarda 14

ta kichik biznesga ko'maklashish markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu markazlar ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan bizneslarni texnologiyalar bilan ta'minlash, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotlarni bozorga chiqarishda amaliy yordam ko'rsatishi belgilangan.

Kichik va o'rta biznesning "yashil" iqtisodiyotga o'tishini rag'batlantirish borasida ham qator tadbirlar ko'zda tutilgan. Jumladan, energiya samarador loyihalar bo'yicha kompensatsiya va kafillik ajratish tizimini yo'lga qo'yish hamda xalqaro moliya institutlaridan 100 million dollargacha mablag' jalb qilish vazifasi belgilangan.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik va o'rta biznes mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishini jadallashtirish uchun davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektorning hamkorligi zarur. Inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa ayollar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Davlat–xususiy sektor hamkorligi esa ilg'or tajribalarni tatbiq etish, inklyuziv va barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.[5]

Xulosa: Umuman olganda, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi har bir mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va diversifikatsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, KO'B sektorining faol qo'llab-quvvatlanishi yangi ish o'rinlari yaratadi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa mazkur sektorning taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan muammolar — bozorlar bilan integratsiya qilishdagi cheklovlar, yetarli malakaga ega ishchi kuchining kamligi, moliyaviy resurslarga kirishning murakkabligi va "yashil" texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar — alohida e'tibor talab qiladi.

O'zbekiston tajribasida qo'llab-quvvatlash bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ushbu sektorning iqtisodiy o'sishga

qo‘shayotgan hissasini oshirishga xizmat qilmoqda. Qulay kredit liniyalarining tashkil etilishi, biznesni rivojlantirish markazlarining ochilishi, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish bo‘yicha dasturlar, shuningdek “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar KO‘Bning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi.

Shu asosda, davlat idoralari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish, innovatsion iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari — Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik hisoboti*, 2019–2023-yillar.
3. OECD. *Small and Medium-Sized Enterprises (SMEs) and Entrepreneurship Outlook*. Paris: OECD Publishing, 2021.
4. World Bank. *Doing Business Report: Measuring Business Regulations*. Washington D.C., 2020.
5. German Federal Statistical Office (Destatis). *SMEs in Germany: Statistical Overview*, 2021.